

“HAVOGA SOVURILGAN UMR” HIKOYASIDA BOSH OBRAZLAR TALQINI

Bekposhsha Rahimova

UrDU dotsenti

Sadullayeva Darmonjon

UrDU talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi o‘zbek hikoyanavisligida o‘zining hikoyalari bilan nom qozongan va o‘z hikoyalarida ayol obrazlarini mahorat bilan gavdalantira olgan adibimiz Zulfiya Qurolboy qizining “Havoga sovurilgan umr” hikoyasidagi bosh Muxtorqul va Manzuraning hayot qiyinchiliklariga bo‘lgan munosabati, ichki kechinmalari, ruhiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: qiyinchilik, ziddiyat, janjal, boylik, kasallik.

Inson hayoti turli qiyinchiliklar-u mashaqqatlardan iborat ekani barchamizga ma’lum. Inson tug‘ilibdiki, uning baxti to‘kis bo‘lishida hamisha unga bir narsa kamlik qilaveradi: kimgadir boylik, kimgadir farzand, kimgadir sog‘lik... Zulfiya Qurolboy qizining “Havoga sovurilgan umr” hikoyasida ham boylik topish, to‘la-to‘kis yashash ilinjida o‘z sog‘ligi ham ko‘ziga ko‘rinmay yashagan qahramon Muxtorqul va o‘z hayotidan noliyveradigan ayol Manzura obrazi mahorat bilan gavdalantiriladi. Hikoya ayolning keyingi kunlari tahlika ostida o‘tishi, erini o‘zgarib qolganini tahlil qilaverib asablari ishdan chiqqani, hatto tiq etgan tovush ham yoqmay qolgani bilan boshlanadi. “Muxtorqul so‘nggi paytlarda indamaslikni odat qilib olgandi. Indamay yechindi, yuvindi. Dasturxon tepasida ham miq etmadi.”⁴³ Mana shunday arzimagan narsalardan ham er-xotin orasida janjal chiqadi. Manzura yana nolishni boshlaydi: “Mazali ovqat yegingiz kelgan bo‘lsa, masallig‘ini tayyorlab qo‘ying edi! Yigirma yil deysiz. Yigirma yilda beri birim ikki bo‘ldimi? Har itdan bir suyak qarz bo‘lib yashaymiz.”⁴⁴ Ro‘zg‘orni borini oshirib, yo‘g‘ini yashirish ayolning gardaniga tushayotgan bir paytda hadeb yo‘qchilikdan nolinaverishi Manzuraning xarakterini ko‘rsatib beradi. Keyin esa u bolalarini olib onasinikiga ketishga qaror qiladi. O‘zi onasining uyida to‘rtta kelin bo‘lib, ular ham kunda bir cho‘qishmasa hisobmas edi. Bolalar ham “Ketmaymiz. Enamnikiga bormaymiz!”⁴⁵ deb yig‘lashar edi. Odatda bunday paytlarda Muxtorqul bolalarini xotining qo‘lidani olib

⁴³ Zulfiya Qurolboy qizi. Yovuzlik farishtasi, -T: “Yangi asr avlodi”, -B.198

⁴⁴ O‘sha asar, -B.198

⁴⁵ Zulfiya Qurolboy qizi. Yovuzlik farishtasi, -T: “Yangi asr avlodi”, -B.199

boshqa xonaga kirib ketardi. Ammo Manzura o'n kunlab miq etmay yuraverardi, "Muxtorqul yosh bolani aldaganday silab-siypab, suvidan kirib, etidan chiqqanidan keyingina sal qovog'ini ochardi."⁴⁶ Bu safar esa Muxtorqul ularni olib qolmadi. Manzura onasi kuyovi bilan gaplashib olganidan so'ng arazini yig'ishtirib uyga qaytib keladi. Shundan keyin Muxtorqul asosiy vaqtini yamoqchilik ustaxonasida o'tkaza boshlaydi. Ayniqsa, kuz paytlari yamoqchiga ish ko'p topiladi va Muxtorqul bu vaziyatni unumli foydalanib qolishni hamda shu yo'l bilan ko'proq pul to'plashni xohlaydi. U o'z xizmat haqini asta-sekinlik bilan oshirib, buyurtmalarini o'z vaqtida topshirish uchun ustaxonasida tunab qola ham boshlaydi. Hatto o'z sog'ligiga ham e'tibor qilmay qo'yadi: "Keyingi kunlarda Muxtorqul to'yib ovqatlanishni ham bas qildi. Bir burda non-u bir choynak suyuqqina qaynoq choy kifoya."⁴⁷

Muxtorqul hundan kunga xasislashib borar, kunduz kuni ham, kechasi chiroq yorug'ida ko'zi yoshlanib poyabzallarni ta'mirlayotganida ham xayolida faqat pul bo'lardi. "Muxtorqul mijozlardan birontasi tanish yoxud qarindosh chiqib qolsa, "xizmat haqi"ni kamroq aytish mumkinligidan cho'chib, ular bilan tuzukroq gaplashmas ham edi."⁴⁸ Avvallari o'g'li otasidan xabar olib turardi. Keyinchalik u ham xabar olmay qo'ydi. Bir kuni ustaxonaga qishloq oqsoqoli keladi. Muxtorqul oqsoqolni bolalari ko'p bo'lgani sababli bir qop poyabzalni tekin tiktirish uchun kelgan degan xayolga borib xushlamayroq qarshi oladi. Garchi oqsoqol unga ota tomondan qarindosh bo'lsa ham. Muxtorqul yoshligidan otasiz o'sgan, uylanib, bola-chaqali bo'lgach ham ro'zg'orni zo'rg'a tebratib kun ko'rardi. Oqsoqol ham uning holidan tez-tez xabar olmasligidan, agar u o'ziga to'qroq bo'lganida yoki kattaroq ishda ishlaganida oyiga bir necha marta kelib uning xolidan xabar olib turushini aytib noliydi. Aslini olganda uning bu asabiylicini tushunsa ham bo'ladi. Chunki u xotining ko'nglini olish, ro'zg'orini to'la-to'kis qilish maqsadida ertayu kech tinmay ishlar, hatto kasaligi ham uni qiziqitirmay qo'ygandi: "O'pkaning eng og'ir formasi bilan kasallanganim tufayli ilgaridan kasalxonada ko'p yotardim. Bola-chaqali bo'lgandan keyin esa kasalxonaga chaqirishsayam bormay qo'ydim."⁴⁹ Muxtorqul aslida yomon ota emasligini adiba quyidagi jumla orqali ko'rsatib o'tadi: "Bolalarimning nasibasini qirqib, do'xtirlarga xarajat qilamanmi deb o'yladim"⁵⁰. U yarimjon bo'lishiga qaramasdan xotini va bola chaqalarini boqish uchun maktab, fabrika, g'isht zavoodi, paxta zavodida ishlaydi. Xastaligi sababli unga og'ir ishlar mumkin emas, kasalligi yuqumli bo'lish ehtimoli borligi uchun maktabda bolalar yonida ishlay olmasdi. Keyin u o'z ustaxonasini ochib tirikchilik ko'ra boshlaydi. Yana bir o'rinda adiba Muxtorqulning oqsoqolga aytgan gaplarida Manzura obraziga ko'zgu tutadi: "Uylanmasimdan oldin orzu

⁴⁶O'sha asar, -B.199

⁴⁷ O'sha asar, -B.202

⁴⁸O'sha asar, -B.203

⁴⁹ Zulfiya Qurolboy qizi. Yovuzlik farishtasi, -T: "Yangi asr avlodi", -B.205

⁵⁰O'sha asar, -B.205

qilardim, xotinim shunday mo'jiza bo'lsaki, kasalligimni yuzimga solmasa deb. Afsus..."⁵¹ Ayol erini kasalligi, ro'zgo'rining to'kis emasligini bahona qilib bo'lar-bo'lmasga janjal ko'taraverar edi. Bunday holatda kitobxonning Muxtorqulga rahmi keladi. Uning xasisligi, asabiyliigi, hadeb noliyverishi, fikr-u xayoli nega faqat pul dardida ekanini tushungandek bo'ladi.

Muxtorqulning diydiyolarini eshitgan oqsoqol bemavrid kelganini payqaydi va ketishga qaror qiladi. Aslida u Manzuraning onasini iltimosi bilan kelgan edi. Manzuraga sovchilar kelayotgan, uning onasi esa oqsoqolni Muxtorqulning oldiga taloq xatini tezlashtirish uchun yuborgan edi. Ammo oqsoqolning bu gaplarni dardi ichida bo'lgan Muxtorqulga aytishga yuzi betlamaydi. Axir bu gaplar unga juda ham ortiqcha edi. U butun umrini sovurib o'z mehnatidan topayotgan pullarini ham xotining ko'nglini olish uchun sarflamoqchi edi. Afsuski bular o'y-xayoligicha qoladi. "Oradan uch kun o'tib, Muxtorqul yamoqchi o'z ustaxonasida qon tuflab, jon taslim qildi. Yamoqchi ro'molchaga o'rab yiqqan pullar uning ma'rakasiga yetdi hisob..."⁵² Hikoya yakunini o'qigan kitobxon hikoya nomi bejiz tanlanmaganini tushunib yetadi. Umrini yemay-ichmay mehnat qilib boylik topish ilinjida bo'lgan obraz Muxtorqulga rahmi kelsa, o'zida boriga shukur qilishni emas, faqat nolishni biladigan, erini qadriga yetmaydigan obraz Manzuradan jahli chiadi. Balki u ham eri bilan birga pul topish uchun mehnat qilganida, turmush o'rtog'ini hurmatini joyiga qo'yib shirinso'z bo'lganida balki Muxtorqulning ham umri uzoqroq bo'larmidi...

Hikoyani o'qir ekanmiz Zulfiya Qurolboy qizining badiiy tasvir mahoratiga, hikoyaning hayotiyligiga tan bermasdan ilojimiz yo'q. Axir atrofimizda ham shunday insonlar, shunday taqdir egalari ham yo'q emas. Adiba tasvirlayotgan voqealar kechayotgan makon va zamon, manzara ko'rinishini eng xarakterli detallar asosida gavalantirishi uning xalq hayotini chuqur bilgani, nochor odamlar ahvolini yaqindan his qilganidan dalolat beradi. Adibaning hikoyalari ham davr va uning muammolari to'g'risida batafsil tushuncha berish barobarida, insoniy munosabatlarning murakkabligi, inson qismatining chigalliklari, kishining taqdiri, istasa-istamasa, boshqalarga bevosita bog'liqligi haqida aniq tasavvur beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Zulfiya Qurolboy qizi "Yovuzlik farishtasi". –T: Yangi asr avlodi, 2005
2. Umurov H. "Badiiy ijod asoslari". –T: O'zbekiston.2001
3. Qayumov L. "Zamondoshlar". G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti- Toshkent.1985
4. Normatov U. "Ijod sehri". –Toshkent. Sharq. 2007
5. Normatov U. "Nafosat gurunglari". -Toshkent. "Muharrar", 2010

⁵¹O'sha asar, -B.205

⁵² Zulfiya Qurolboy qizi. Yovuzlik farishtasi, -T: "Yangi asr avlodi", -B.207